

Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari uchun

QO'LLANMA

Dars rejasi:

Mavzu: "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar"

Fan: Davlat va huquq asoslari

Sinf: 11-sinf

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Dars maqsadi:

1. Iqtisodiy jinoyatlar, ularning turlarini tushuntirish.
 2. Korrupsiyaning shakllari, poraxo'rlik va ularga olib keluvchi vaziyatlar haqida aniq bilimlar berish.
 3. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (mediasavodxonlik) va ularning oldini olishga qaratilgan tushunchalarni shakllantirish.
 4. Tadqiqotlar va amaliyotlar orqali jinoyatlarning oqibatlari va ularga qarshi kurashish usullarini o'rgatish.
-

Kutilayotgan natijalar:

1. O'quvchilar mulkni talon-toroj qilishga oid jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar haqida to'liq tushunchaga ega bo'ladilar.
 2. Korrupsiya, pora olish va berishda vositachilik qilish kabi jinoyatlarga oid bilimlarga ega bo'ladilar.
 3. O'quvchilar mavzuni hayotiy holatlar orqali o'rganadilar va huquqiy qarashlarini shakllantiradilar.
-

Metodlar:

- **Keys-metod:** Jinoyatlar bilan bog'liq amaliy vaziyatlarni tahlil qilish.

- **Rolli o‘yinlar:** Iqtisodiy jinoyatlarga oid holatlarga nisbatan o‘z pozitsiyasini bildirish.
 - **Blits so‘rov:** Qisqa savollar orqali o‘quvchilarning bilimlarini tekshirish.
 - **Suhbat:** Jinoyatlar va ularning oqibatlari haqida faol suhbat olib borish.
 - **Hikoyalar:** Real hayotda sodir bo‘lgan iqtisodiy jinoyatlar va ularning natijalariga oid hikoyalar bilan bilim berish.
 - **Topshiriqlar:** Jinoyat turlari va ularga olib keluvchi vaziyatlar bo‘yicha topshiriqlar.
-

Foydalanadigan materiallar:

- **Taqdimot:** Mulk talon-toroji, korrupsiya va axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.
 - **Qonun hujjatlari:** O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda iqtisodiy jinoyatlarga oid qonunlar, korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonun hujjatlar.
 - **Kartochkalar va keyslar:** Rolli o‘yinlar va keyslar orqali baholash uchun materiallar.
-

Dars qismlari:

1. Kirish (5 daqiqa)

- O‘quvchilarga savol: "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar haqida nimalarni bilasiz?"
- O‘quvchilarning fikrlarini jamlash va darsning mazmuniga kirish.

2. O‘zgalar mulkini talon-toroj qilishga oid jinoyatlar (10 daqiqa)

- **Mulkni talon-toroj qilish:** bu shaxslarning mol-mulkini qasddan, olish yoki talon-toroj qilish bilan bog‘liq jinoyatlardir. Bu jinoyatlar, umuman, mamlakat qonunchiligida, ya’ni Jinoyat kodeksiga muvofiq javobgarlikka olib keladi.
- **Jinoyat turlari:**
 - O‘g‘rilik – bu shaxs boshqa shaxsning mol-mulkini, ularning ixtiyoriga xilof ravishda, boshqa shaxsga zarar yetkazib olishni maqsad qilgan harakatdir. O‘g‘rilik jinoyati talon-toroj qilishga yoki boshqa shaxsning mol-mulkiga bevosita, qasd bilan sodir qilishga qaratilgan bo‘ladi.

- **Savol:** "Mulknı talon-toroj qilishga oid jinoyatlarning oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?"

- **Faoliyat:** O'quvchilarga jinoyat turlarini tavsiflash va ularning ta'siriga asoslangan misollar keltirish.

3. Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar (8 daqiqa)

- **Boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar:** bu davlat organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatiga xalaqit berish, ularning qonuniy ishiga aralashish yoki davlat boshqaruvi tizimining faoliyatiga zid bo'lgan harakatlardir. Bunday jinoyatlar o'z ichiga hokimiyat organlarining ishiga tajovuz qilish, davlat organlariga nisbatan qasddan tahdid qilish va mansabdor shaxslarning faoliyatiga aralashishni o'z ichiga oladi.

- **Jinoyat turlari:**

- Pora berish – bu shaxsning mansabdor shaxsga o'z shaxsiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida pul, tovar, xizmat yoki boshqa boyliklarni taklif qilishi yoki berishidir. Pora berish, korrupsiyaga oid jinoyat hisoblanadi va davlat organlarining, mansabdor shaxslarining yoki boshqa shaxslarning qonunga xilof faoliyatini rag'batlantiradi.

4. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar (8 daqiqa)

- **Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar:** bu jinoyatlar, asosan, jamiyatdagi qonuniylik va tartibni buzish, odamlarning xavfsizligi va salomatligiga tahdid solishga qaratilgan xatti-harakatlardir. Jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar davlatning huquqiy tizimi va jamiyatning umumiy faoliyatini saqlashga mo'ljallangan qonunlarga qarshi harakatlarni o'z ichiga oladi.

- **Jinoyatlar misollari:**

- Bezorilik – bu jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik, urish-do'pposlash, badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga shikast yetkazish yoxud nobud qilish ancha zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlar.

- **Savol:** "Jamoat tartibini buzuvchi jinoyatlarning iqtisodiy oqibatlari qanday bo'lishi mumkin?"

5. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar (Mediasavodxonlikning ahamiyati). (8 daqiqa)

- **Axborot texnologiyalariga oid jinoyat turlari:**

- bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan (internet, kompyuterlar, mobil qurilmalar va boshqa raqamli vositalar) foydalangan holda amalga oshiriladigan jinoyatlardir. Ular axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlar, raqamli va elektron xatti-harakatlar bilan bog'liq holatlarda sodir etiladi. Axborot

texnologiyalari jinoyatlari orasida, jinoyatchilar axborotni to'plash, tarqatish yoki ongli boshqarish uchun zamonaviy texnologik vositalardan foydalanishadi.

- **Mediasavodxonlik:** axborot texnologiyalari, medialar va ulardan foydalanishda samarali va axborot to'g'risida to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishdir. Mediasavodxonlik — bu axborotni tahlil qilish, manbaalarini tekshirish, yolg'on ma'lumotlarni aniqlash qobiliyatiga asoslangan bilimlar.

- **Suhbat:** O'quvchilarga axborot texnologiyalari va mediasavodxonlikning huquqiy ta'sirlarini muhokama qilish.

6. Korrupsiya va uning belgilari (8 daqiqa)

- **Korrupsiya:** bu mansabdor shaxslar va davlat xizmatchilari yoki ular bilan bog'liq shaxslar tomonidan qonuniy va axloqiy prinsiplarga zid ravishda shaxsiy manfaatlarni ro'yobga chiqarish maqsadida hokimiyat va vazifalaridan suiiste'mol qilishni anglatadi. Korrupsiya davlat organlari, xususiy sektor va jamiyatda har qanday soha va darajada uchrashi mumkin.

- **Belgilari:**

- Pora olish, berish, va vositachilik qilish.

7. Yakuniy xulosa (3 daqiqa)

- **Suhbat:** O'quvchilar bilan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oqibatlarini, ularga olib keluvchi vaziyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish haqida suhbat olib borish.

- **Savollar:** "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning oldini olishda qanday choralar ko'rish kerak?"
